

**O. Hasanboyeva, M. Inoyatova,  
V. Kostetskiy**

# **ODOBNOMA**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
1- sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan tasdiqlangan*

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT – 2019

UO'K: 177 (075.2)

KBK 74.00

X 30

Mas'ul muharrir **R.X. Djurayev** — p.f.d., akademik.

Taqrizchilar:

**Sh. To'rarev** — f.f. nomzodi, dotsent;

**Z. Jumanova** — Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti;

**Z. Jabborova** — Respublika ta'lim markazi metodisti;

**G. Saydaliyeva** — Yunusobod tumanidagi 96-maktabning oliv toifali  
boshlang'ich sinif o'qituvchisi.

### SHARTLI BELGILAR:



— birgalikda o'qiyimiz;



— maqolning ma'nosini  
izohlang;



— topshiriq;



— savol;



— savol va topshiriq;



— yodda tuting.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan  
chop etildi.**

ISBN 978-9943-22-364-6

© O. Hasanboyeva, M. Inoyatova.

© „O'qituvchi“ NMIU, 2019

## I. O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD VATAN

### 1. 1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI

*Farzandlar tinchligi,  
ularning baxti, kamoloti — jamiyatning  
eng katta boyligi.*

**Shavkat Mirziyoyev,**  
O'zbekiston Prezidenti



**Bayramingiz qutlug' bo'lsin!**






Bayrog'imiz rangga boy,  
Sizga ayon hoynahoy:  
Oq rang — poklik, oq niyat,  
Yashil rang-chi — tabiat.  
Qizil rang — jo'sh urgan qon,  
Ko'k rang — osuda osmon.  
Oy-yulduzi charog'on,  
Onajon — O'zbekiston.



Davlatimiz bayrog'ini bo'yang.




## 2. BOBOLARDAN MEROS YURT




**Samarqand**



**Nukus**



**Buxoro**



**Xiva**

❓ Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Nukus shaharlari haqida nimalarni bilasiz?



## Toshkent — O'zbekistonning poytaxti



### Hur o'lkam

O'zbekiston — hur o'lkam,  
Bag'ri to'la nur o'lkam.  
Humo qushi boshingda,  
Baxt porlar quyoshingda.

*Dilshod Rajab*

## Obod Vatan



**Poytaxtimiz va qishloqlarimizdagı  
yangi qurilayotgan binolar**



**Siz yashayotgan joyda qanday yangi  
binolar qurilmoqda?**



## II. ODOB — INSON UCHUN ZIYNAT

### 3. ODOB-AXLOQ ME'YORLARINING DASTLABKI TALABLARI



- ?
1. Sizningcha, bu bolalarni nima uchun mehribon va odobli deyish mumkin?
  2. Eslab ko'ring-chi, siz qaysi sehrli so'zlarni ko'p ishlatasiz?

„ASSALOMU ALAYKUM“,

„LABBAY“,

„RAHMAT“,

„ILTIMOS“,

„XAYR“.





Eslagan sehrli so'zlariningizdan foydalaniib, „Odob qoidalari“ she'rini to'ldiring va yodda tuting.

<b>Birinchi qoida:</b> Oldin salom, so'ng kalom, So'z boshida: „...“.	
<b>Ikkinci qoida:</b> Yoqar quloqqa moyday, „Ha“ demay, desang: „...“.	
<b>Uchinchi qoida:</b> Ishing tushsa, bo'lar soz, Kulib, desang: „...“.	
<b>To'rtinchi qoida:</b> Xush kelibsan, marhamat, Yordam berganga: „...“.	
<b>Beshinchi qoida:</b> Indamay ketma, Toyir, So'z so'nggi bo'lar: „...“.	



## 4. ODOBBLI BOLA – ELGA MANZUR



Rasmdan xulosa chiqaring!


**Yodda tuting!** Odobli bola odamlar bilan suhbatda sehrli so'zlaridan ko'p va o'rinli foydalanadi.

Quyidagi bolalarni nima uchun odob-siz deymiz? Odobli bola qanday bo'ladi?





„Iltimos“, „Marhamat“, „Rahmat“ kabi sehrli so‘zlarni qo’llab, quyidagi vaziyatlarni sahnalashtirib ko’rsatib bering.



## 5. SALOMLASHISH ODOBI

Salom berish eng go'zal fazilatdir.



„Assalomu alaykum“ — „Sizga tinchlik va salomatlik tilayman“.

„Va alaykum assalom“ — „Sizga ham tinchlik va salomatlik tilayman“.



**Salomlashganda aytildigan sehrli so'zlarni eslang.**

**Assalomu alaykum!**

**Va alaykum assalom!**

**Yaxshimisiz?**

**Sog' bo'ling!**



**Ko'chada sinfdoshingizni uchratib qolsangiz, qanday salomlashib, suhbatlashishingizni ko'rsatib bering.**

Bolajonim, shuni bil:  
Odobing ziynatingdir.  
Odob go'yo xazina,  
Saloming — billur zina.  
Odob go'yo uchar ot,  
Saloming — oltin qanot.




## 6. SALOMLASHISH QOIDALARI

<p><b>Qo'Ini ko'ksiga qo'yish „Sizni hurmat qilaman“ deganidir.</b></p>	
<p><b>Odatda, kichik kattaga salom beradi.</b></p>	
<p><b>Bir kishi ko'pchilikka salom beradi.</b></p>	
<p><b>Mashinada ketayotgan odam piyodaga salom beradi.</b></p>	
<p><b>Telefon go'shangini ko'tarib, „Labbay“ deyiladi va salom beriladi.</b></p>	
<p><b>Ertalab yuz-qo'Ini yuvmasdan salomlashilmaydi.</b></p>	



Berilgan rasmlardagi holatlarni izohlang. Bolalar salomlashish qoidalariga qanday rioya qilayotganini aytib bering.



## 7. MUOMALA ODOBI

**CHIROYLI  
TABASSUM**

**SHIRINSO‘ZLIK**



Kulib turgan bolaning  
o‘zi chiroyli,  
Mehr nuri yog‘ilgan  
ko‘zi chiroyli.  
Odobи ham oftobdek —  
yuzi chiroyli,  
Yoqimli ham muloyim  
so‘zi chiroyli.



Muomala odobida qo‘llanadigan so‘z-larni eslang.

Do‘stim...

O‘rtoqjon...

Rahmat!

Xo'p bo'ladi!


Marhamat!

Yaxshimisiz?

Sog'-salomat yuribsizmi?



Yuqoridagi so'zlardan foydalanib, ushbu holatlarni sahnalashtiring.



**Yodda tuting! Suhbatlashganda  
sehrli so'zlardan foydalaning!**



## 8. YAXSHILIK VA YOMONLIK

Odamlarni xursand qiladigan, og'irini yengil qiladigan xatti-harakatlar yaxshilik hisoblanadi. Odamlarni ranjitadigan, xafa qiladigan xatti-harakatlar yomonlikdir.



Quyidagi holatlarni sahnalashtiring va munosabat bildiring.



Birgalikda javob bering.


**Nima — yaxshi, nima — yomon?**

- Yordam berish
- Beparvolik
- Mehnatsevar bo'lish
- Dangasalik



- Kattalarga hurmatda bo'lish
- Gap qaytarish

 Hayotingizda rasmlardagi qaysi holatlarga duch kelgansiz? Yana qanday holatlarda yaxshilik qilish mumkin?



## 9. BIZNING BURCHLARIMIZ

Burch topshirilgan ishlarni vaqtida bajarish, o'z vazifalariga mas'uliyat bilan qarashdir. Mas'uliyat o'z xatti-harakati uchun javobgarlikni his qilishdir.



### O'quvchining burchi

Gulnora — mas'uliyatli qiz. U o'z o'quvchilik burchlarini yaxshi biladi. Maktabga o'z vaqtida keladi. Darsda intizom saqlaydi. Yaxshi o'qiydi.

Bugun Gulnora — navbatchi. U erta bilan kelib, sinfning ozodaligini tekshirdi. Tanaffuslarda doskani yarqiratib artib qo'ydi.

Ustozimiz Gulnorani „mas'uliyatli o'quvchi“ deb maqtadilar.



„O'quvchilik burchi“ deganda nimani tushunasiz?





Rasmni kuzating. Bolalarning qaysilari o'z ishiga mas'uliyat bilan qarayapti deb o'ylaysiz?



## 10. MINNATDORLIK

Minnatdorlik bu odamlarning yordamidan xursand bo'lish, ularga rahmat aytishdir.

! Odamlarga qanday so'zlar bilan rahmat aytganingizni eslang.


Minnatdorman!

Tashakkur!

Rahmat!

Xursand bo'ldim!

! Ushbu holatlar uchun chiroyli minnatdorlik so'zlarini topping.





Kattalar sizga qanday so'zlar bilan minnatdorlik bildirishadi?

Barakalla!

Otagga rahmat!

Ming rahmat!

Baraka top!



Rasmlarni sahnalashtiring. Chiroyli minnatdorlik so'zlaridan foydalaning.




Duo — oltindan qimmat.



## 11. OILA DAVRASIDA

Har bir insonning o'z oilasi bor. Oilada ota-onas, bobo-buvilar, aka-ukalar, opa-singillar ahil yashaydilar. Ular bir-biriga har bir ishda yordam berishi lozim. Chunki, oila kichik Vatandir.



- ?  
! 1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
- 2. Oila a'zolarining haqida so'zlab bering.

## Ota-onangiz va yaqinlaringizni ardoqlang!

1. Ota-onangiz va yaqinlaringizga mehr va hurmat bilan munosabatda bo'ling.
2. Ota-onangizga beminnat dastyor bo'ling.



 Siz uyda qanday ishlarni bajarasiz?  
Oilangizdagи tartib-qoidalar haqida  
so'zlab bering.




## 12. TA'LIM MUASSASASIDA ODOB-AXLOQ QOIDALARI

- O'quvchi intizomli bo'lishi, vazifalarni qunt bilan bajarishi lozim.
- Maktab mulki va o'quv qurollarini ko'z qorachig'idek asrashi zarur.
- Muomala odobiga rioya qilishi kerak.
- Savol so'ramoqchi yoki javob bermoqchi bo'lganida qo'l ko'tarishi lozim.

 Toping-chi, rasmda qaysi qoida buzilgan?





?

O'quvchilar matabning qaysi qoidalariga rioya qilishmoqda?



**Ustoz** — fan bog'ining bog'boni.

**Odob** — kishining zeb-u ziynati.



### 13. JAMOAT JOYLARIDA O'ZINI TUTISH

Maktab, ko'cha, teatr, kutubxona, jamoat transporti jamoat joylariga misol bo'la oladi.

Ularning o'z odob qoidalari bor.

 Rasmlarga qarab, jamoat joylarida nima yaxshi-yu nima yomon ekanini bilib oling.



## Yaxshimi yoki yomon?

- Salom berish
- Kechirim so'ramaslik
- Tabassum qilish
- Odamlarni xafa qilish
- „Rahmat“ aytish
- Baqirib gapirish.

! Yangi do'stlar bilan qanday tanishishingizni sinfdoshingiz bilan birga sah-nalashtirib ko'rsating.

*Foydalanish uchun so'zlar:*

Tanishganimdan xursandman!

Tashakkur!

Do'stim...

Do'st bo'laylik...

O'rtoqjon...



## TAKRORLASH



1. Nima uchun yurtimizni „Ozod va obod Vatan“ deb ataymiz?
2. Namunadan foydalanib, shaharlari-mizga ta’rif bering.

Namuna: *Namangan — gullar shahri.*

Samarqand — ...

Xiva — ...

Nukus — ...

3. Tug‘ilgan joyingizga ta’rif bering.
4. Maktabda rioya qilinadigan odob-axloq qoidalarini aytib bering.

## So‘z sehri



Qanday yaxshi so‘z — kalom,  
Odob boshi „Assalom“.



Xush yoqadi hamma vaqt:

„Rahmat“, „Xo‘p-xo‘p“, „Marhamat“.

Yayratadi dilingni

Do‘stlarning „Xush keling“ i.



So‘nggi so‘z ham alomat:

„Xayr, bo‘ling salomat“.



*Dilshod Rajab*



! Guruhlarga bo‘lining. She’rdagi ajratilgan so‘zlardan foydalanib, Qorbobo va Qorqiz suhbatini sahnalashtiring.



### III. INSON SALOMATLIGI — YURT BOYLIGI

#### 14. TOZALIK — SOG'LIK GAROVI



Rasmdagi narsalarning qaysilari ozo-da yurish uchun ishlataladi?



Pokliging — sog'liging.

**G'ayrat nega uyaldi?**

O'qish darsi edi. Sinfga maktab direktori Umar Akbarovich kirdi. O'quvchilar o'rnilaridan turib, direktorga salom berdilar. Direktor G'ayratjonga qarab:



— G'ayratjon, ozodalikka rioya qilish haqida nimalarni bilasan? — deb so'radi.

G'ayratjon o'rnidan turdi. Uning kiyimlari g'ijim, sochi taralmagan, tuflisi loy edi.

G'ayratjon javob bera olmay, uyatdan qizarib, yerga qaradi.

Ayting-chi, nega G'ayratjon uyalib, javob bera olmadi?



### Orasta bo'ling

Qanday yaxshi, bolalar,  
Tozalik, orastalik.  
Go'zal xulq, odob bilan  
Hamisha payvastalik.

*Muhiddin Omon*



## 15. OVQATLANISH ODOBI VA QOIDALARI



Rasmlarni kuzatib, xulosa chiqaring.



## Buvijonim o'gitlari

Kechki taom payti edi. Husan taomni juda shoshilib yedi. Buvijonim unga tanbeh berdilar:

— Ovqatlanishning o'z odobi va qoidalari bor. Men uchtasini aytib bera-man: birinchisi — odobli bola ovqatlanishdan avval va keyin qo'llarini yuvadi. Ikkinchisi — o'zidan kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi. Uchinchisi — mazali taom uchun rahmat aytadi. Qolg'anlarini sen o'zing aytib ber-chi?!




Ovqatlanishning yana qanday qoidalarini bilasiz?



## 16. AMALIY MASHG'ULOT

! Ovqatlanish odobiga rioya qilinmayotgan holatlarni toping!





Dasturxon atrofida qanday sehrli so'zlar ishlataladi?


Yoqimli ishtaha!

Iltimos, tatib ko'ring...

Rahmat, ovqat juda mazali bo'libdi!



Yuqoridagi so'zlarni qo'llab, „Mehmon-mehmon“ o'yini o'ynang. Likopcha, pichoq, qoshiq va sanchqilardan rasmda ko'rsatilgandek foydalaning.




## 17. XAVFLI VAZIYATLARDA TARTIBLI VA TO'G'RI HARAKAT QILING!

**Xavfli vaziyat** — o'zi yoki o'zgalar aybi bilan, beparvolik oqibatida inson hayotining xatarda qolishi.





Bunday xavfli vaziyatlar nimalarga olib keladi?





Xavfli vaziyatlarda qanday to'g'ri harakat qilish kerakligini eslab qoling.



Hayotingizni xavf ostiga qo'ymang!




## 18. AMALIY MASHG'ULOT

! Xavfli vaziyatlarda qaysi raqamlarga telefon qilishingizni eslang.

101    102    103    104    1050

? Sizningcha, ushbu vaziyatlarda qaysi raqamga telefon qilish zarur?



! Xavfsizlik xizmatlarining nomlarini eslang.

„Tez tibbiy yordam“ „Yong'in xavfsizligi xizmati“ „Gaz xizmati“  
„Ichki ishlar boshqarmasi“  
„Qutqaruв xizmati“



Ushbu mashinalar xavfsizlik xizmatining qaysi turlarini aks ettiradi? Namuna qarab, kerakli xizmat turini yozing.

*Namuna:*



„Gaz xizmati“

„Qutqaruv xizmati“



## IV. BILIM OL, HUNAR O'RGAN

### 19. KITOB — BILIM CHIROG'I



**!** Rasmlarni qiyoslang va xulosa chiqaring.

#### Kitob

Men kitobman-kitobman,  
Nurga to'la oftobman.  
Agar meni yirtsalar,  
Biling, shunda — betobman.

*Abdulla Turdiyev*



## Kitob o'qish qoidalari:

- kitobni toza qo'l bilan ushlang;
- kitobni avaylab-asrang;
- kitobni yotib, ko'zga yaqin ushlab o'qimang, bu salomatlik uchun zarar;
- kitobni yorug'lik chap tomondan tu-shadigan joyda o'qing. Kitob o'qiganda xatcho'pdan foydalanishni odat qiling.



Siz kitobni avaylab-asrash uchun ni-ma qilasiz?

Juda sevamiz uni  
Xilma-xildir mazmuni.  
U — barchaning ulfati,  
Ba'zan bo'lar surati.  
Qani, o'rtoq, buni top!  
Eslagan der, bu — ...



## 20. BILIM OL, HUNAR O'RGAN

Bolalar, g'ayrat bilan mehnat qilsangiz, albatta, kelajakda bilimli, hunarli, barkamol inson bo'lasiz.



Toping-chi, bu bolalar kelajakda kim bo'lishi mumkin?



## Hunarmand

Qo'lida cho'tka, moyi,  
 Doim ochiq chiroyi,  
 Bo'yoqchi Turg'un tog'am  
 Yetmish hunarda bekam.

Devorga chizgan naqshi,  
 Qanday charaqlar yaxshi.

Yana usta pazanda,  
 Qo'shiqchi ham sozanda.

Tog'am kabi serhunar,  
 Bo'lsang, hunardan unar.



*Obid Rasul*

! Ajratilgan jumlalar yordamida hunarmand qanday bo'lishini aytib bering.



Hunarsiz bilan do'st bo'lma.

„Qobusnama“dan



Hunarsizga k     yo'q.



## 21. INSON MEHNATI BILAN SHARAFLIDIR

Mehnat bilan hayotimiz farovon. Foydali va zarur narsalarning barchasi inson mehnati tufayli bunyodga kelgan. Shu sababli mehnatkash odamni elimiz ardoqlaydi. Aziz o'quvchilar, g'ayratli va mehnatsevar bo'ling!




**Yodda tuting!** O'quvchining asosiy mehnati — puxta bilim olish.

### G'ayratli o'quvchi

„Yosh kitobxon“ tanlovida Nodir akam g'olib bo'ldi. Ustozimiz Dono Hamidovna unga katta gulasta taqdim etdi. „Nodirjon astoydil intilgani sababli tanlov g'olibi bo'ldi. Siz ham Nodirjondek bo'lishni istasangiz, mehnatdan qochmang!“ — dedi ustoz.

Nodir akamga juda havasim keldi.





Siz o'zingizni mehnatsevar o'quvchi deb bilasizmi?



Mehnat — baxt kaliti.

*Alisher Navoiy*

Bugungi ishni ertaga qo'yma.



Mehnat qilib topganing,  
Qand-u a  totganing.



## 22. KIM BO'LSAM EKAN?

*(Amaliy mashg'ulot)*



Rasmlardan foydalanib, kasblar haqidagi she'riy topishmoqlar javobini toping.



Salomatlik posboni,  
Dardimizning darmoni,  
O'z kasbiga fidokor,  
Uning nomi — ... .

\* \* \*

Kitobxonga xizmat qilar,  
Barchamizga kitob berar.  
U kim o'zi, o'yla-chi,  
Topdim — ... .


\* \* \*



Qo'llarida mo'yqalam, rasm chizar,  
kim? — ... .

 Boshqotirmani yeching. Berilgan so'zlarni o'ziga mos katakchalarga joy-lashtiring.

Uchuvchi, shifokor, kulol, quruvchi,  
muhandis.



 Yuqoridagi kasblar haqida nimalarni bilasiz?



Hunar — tuganmas xazina.



## V. AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR

### 23. XOTIRA VA QADRASH KUNI

9-may — Xotira va qadrlash kuni.

Shu kuni biz ajdodlarimizning ibratli ishlarini yodga olamiz.

Bizni tarbiyalab, odob-axloq o'rgatgan bobojonlarimiz va buvijonlarimizga, ota-onamizga rahmat aytamiz.


Vatanimiz tinchligi va farovonligi yolda jon fido etgan, bizga baxtli bolalikni hadya etgan ajdodlarimizni — ota-bobolarimizni xotirlaymiz. Ularning haykallari poyiga gullar qo'yamiz.

Qariyalar va bemorlarning holidan xabar olamiz. Xotirlash va qadrlash barchamizning farzandlik burchimizdir.



Xotira mangudir.





1. Rasmga qarab, tinchlik kurashchilarini qanday yodga olishingizni aytib bering.
2. Tinchlik uchun kurashgan bobolarimizdan kimlarni bilasiz?
3. Nega qahramon ota-bobolarimiz xotirasini yodda saqlaymiz?

**Mardlik — mangilik.**



## 24. ZIYORAT ODOBI

(*Amaliy mashg'ulot*)



Yurtimizda ko'pgina ziyoratgohlar mavjud. Xotira va qadrlash kunida biz ziyoratgohda bo'ldik. Ziyoratgohga kirishdan oldin ustozimiz:

„Bolalar, ziyoratgoh hududida ozodilikka rioya qiling. Baland ovozda gapirmang. Ota-bobolarimizning hayoti va



ibratli ishlari haqida ko'proq ma'lumot to'plang", — deb tayinladilar.



Ota-onangiz bilan yaqin atrofdagi zi-yoratgohga boring. Ziyorat odobiga rio-ya qiling.

### **Donolar ziyorat odobi haqida**

- \* Ziyoratgohga yuvinib, toza bo'lib borish kerak.
- \* Ziyoratgohga salom berib kirish lozim.
- \* Ziyoratgohda g'isht va bezaklarga turli so'zlar va niyatlarni yozish mumkin emas.
- \* Ulug'lar maqbarasi ustiga sham yoqish, yonidagi daraxtlarga turli latta va tasmalar bog'lash mumkin emas.



## VI. TABIAT VA BIZ

### 25. TABIATNI ASRASH VA TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT ODOBI

Tabiat — bu yer, osmon, daraxtlar, jonivorlar, zilol suv va toza havo demakdir. Tabiat bag'riga sayohat chog'ida ozodalikni saqlash, jonivorlarga ozor bermaslik, zilol suvgaga chiqindi tashlamaslik lozim. Aks holda, Olimjonning o'rtoqlari kabi uyalib qolasiz.

#### Tabiatni asrang

(Hayotiy ertak)

Yozda Olimjon o'rtoqlari bilan tog' yonbag'riga sayohatga chiqdi. Kun bo'yи toza havoda dam olishdi. Olimjon boshqacha bola, tabiat bilan gaplasha oladi. U Jilg'a yonida dam olib yotgan edi, uning so'zini eshitib qoldi:

— Olimjon, Aliga ayt. Nega menga chiqindi tashlaydi? — ingradi Jilg'a.



- Valiga ayt, shoxlarimni sindirma-sin, jonim og'riyapti, — shitirladi O'rik daraxti.
- Mahmud palaponlarimni urib tu-shirmoqchi, — zorlandi Qushcha.



Bu gaplarni eshitgan Olimjon qattiq ranjidi. Ularga achinib, yig'lab yubordi. O'rtoqlari qilmishlaridan pushaymon bo'-lishdi. Jilg'a, O'rik daraxti va Qushcha-dan kechirim so'rashdi.

 Ertakdan xulosa chiqaring. Tabiat qo'yniga sayohat odobi nimalardan iborat ekan?



## 26. JONIVORLARGA G'AMXO'RLIK — EZGU FAZILAT

Jonivorlar — insonning yaqin do'stlari. Ular doimo insonga xizmat qilib kelishgan.

Kabutar xat tashigan.



Ot uzoqni yaqin qiladi.




It xonadonimizni qo'riqlaydi.

Qirol sher, donishmand laylak va uchar otni juda yaxshi ko'rasiz, to'g'rimi? Ular go'zalligi, bahodirligi va donoligi bilan mehringizni qozonishgan. Eshigingiz yonida mo'ltilrab turgan mushukchaga, qor tagidan ushoq izlayotgan qushga achnasiz, albatta. Lekin achinishning o'zi

kamlik qiladi. Jonivorlarga g'amxo'rlik qilish zarur.



Quyidagi hayvonlar nomining bosh harflarini topsangiz, „Qizil kitob“ga kiran gan jonivor nomini topasiz.



### Nega bulbul sayramas?


Aka, bizning gulzorda,  
Nega bulbul sayramas?  
Biz bilan inoq bo'lib,  
O'ynab yurmas, yayramas.



U qushcha bog'imizda  
Sayrab yurganda, Xoldor,  
Quvgan eding-ku o'zing,  
Hali ham esida bor.

### Oollobergan Po'lat

Qushlar qanday bolalardan qochadilar?



## 27. TABIAT NE'MATLARINI TEJASH

Inson tabiat ne'matlarisiz yashay olmaydi. Hatto taomlarimiz ham uning ko'magida tayyorlanadi. Tabiat ne'matlari tufayli hayotimiz farovon. Elektr quvvati va tabiiy gamsiz nima ham qila olardik?! Elektr quvvati uylarimizni yoritadi, ulkan korxonalar, televizor, radio, muzlatkich, kompyuter, qo'l telefonini — barchasi u tufayli ishlaydi.

Ichimlik suvi tobora kamayib bormoqda.

Gaz, suv va elektr quvvatini tejash bizning insoniy burchimizdir.




Har narsaning o'Ichovi bor.



1. Suv, gaz, elektr quvvati insonga qanday foyda keltiradi?

2. Nima uchun toza suvni tejash zarur?



- ?
1. Rasmlardagi holatlarga baho bering.
  2. Siz suv, gaz va elektr quvvatini tejashga qanday hissa qo'shyapsiz?




Suvsiz hayot bo'lmas,  
mehnatsiz — rohat.



## 28. YAKUNIY DARS

### Odobnomaning 1- sinf o‘quvchisiga o‘gitlari



Mana siz „Odobnoma“ni o‘qib, odob-axloq haqida ko‘p narsalar ni o‘rgandingiz. Muomala va salomlashish odobiga oid sehrli so‘zlarni qo’llashga odatlandingiz. Maktabda, tabiat qo‘ynida va jamoat joylarida o‘zingizni qanday tutish lozimligini bilib oldingiz. O‘tilgan mavzularni bir yodga oling-chi, barchasini o’zlashtirib oldingizmi?!

Yozgi ta’til oldidan sizga zarur maslahatlar bermoqchiman. Ular sizga doim kerak bo‘ladi.



## **Yodda tuting!**

1. Uyingizda kichik kutubxona tashkil qiling. Ko'proq o'qishga, bilim egallahsga intiling.
2. Sog'lom tanda sog' aql bo'lishini yodda tuting. Badantarbiya va sport bilan muntazam shug'ullaning.
3. Yaxshi odatlarga amal qiling. Yomon odatlardan uzoq yuring.
4. Rostgo'y bo'ling. Hech qachon yolg'on gapirmang.

Agar shu o'gitlarga amal qila olsangiz, sizni barcha yaxshi ko'rib, hurmat qiladi.

**Xayr, aziz bolajonlarim!  
Odobli inson elda aziz bo'lishini  
yodda saqlang!**



## MUNDARIJA

### I. O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD VATAN

1. 1-sentabr — Mustaqillik kuni .....	3
2. Bobolardan meros yurt .....	5

### II. ODOB — INSON UCHUN ZIYNAT

3. Odob-axloq me'yorlarining dastlabki talablari .....	8
4. Odobli bola elga manzur .....	10
5. Salomlashish odobi .....	12
6. Salomlashish qoidalari .....	14
7. Muomala odobi .....	16
8. Yaxshilik va yomonlik .....	18
9. Bizning burchlarimiz .....	20
10. Minnatdorlik .....	22
11. Oila davrasida .....	24
12. Ta'llim muassasasida odob-axloq qoidalari .....	26
13. Jamoat joylarida o'zini tutish .....	28
Takrorlash .....	30

### III. INSON SALOMATLIGI — YURT BOYLIGI

14. Tozalik — sog'lik garovi .....	32
15. Ovqatlanish odobi va qoidalari .....	34

16. Amaliy mashg'ulot .....	36
17. Xavfli vaziyatlarda tartibli va to'g'ri harakat qiling! .....	38
18. Amaliy mashg'ulot .....	40

#### **IV. BILIM OL, HUNAR O'RGAN**

19. Kitob — bilim chirog'i .....	42
20. Bilim ol, hunar o'rgan .....	44
21. Inson mehnati bilan sharaflidir .....	46
22. Kim bo'lsam ekan? ( <i>Amaliy mashg'ulot</i> ) .....	48

#### **V. AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR**

23. Xotira va qadrlash kuni .....	50
24. Ziyorat odobi ( <i>Amaliy mashg'ulot</i> ) .....	52

#### **VI. TABIAT VA BIZ**

25. Tabiatni asrash va tabiat qo'yniga sayohat odobi .....	54
26. Jonivorlarga g'amxo'rlik — ezgu fazilat .....	56
27. Tabiat ne'matlarini tejash .....	58
28. Yakuniy dars .....	60

**Hasanboyeva, Oysha**

74.00

X 30

**Odobnama:** 1- sinf uchun darslik / O. Hasanboyeva,  
M. Inoyatova, V. Kostetskiy — Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU,  
2019. — 64 bet.

ISBN 978-9943-22-364-6

UO'K: 177 (075.2)

KBK 74.00

**Oysha Hasanboyeva**

**Muhayyo Inoyatova**

**Vasiliy Kostetskiy**

**ODOBNOMA**

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning**

**1- sinfi uchun darslik**

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2019

Muharrir Z. Inyaminova

Rassom B. Muhamedov

Badiiy muharrir Q. Shomurodov

Texnik muharrir N. Niyozmuhamedova

Musahhihlar: E. Najimova, Sh. Jahonov

Kompyuterda sahifalovchi O'. Qurbonova

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018.

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 10.04.2019. Bichimi 70x90 1/<sub>16</sub>.  
Kegli 18 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozni. Sharqli b. t. 4,68.  
Hisob-nashriyot t. 4,0. Adadi 533 762 nusxa. Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
komunikatsiyalar agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Toshkent — 206, Yangishahar ko'chasi, 1-uy. Sharhnomha № 02-19.